



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “ARUZ RISOLASI”DA YORITILGAN BAYT QISMLARI VA TURLARI XUSUSIDA

ON THE COMPONENTS AND TYPES OF VERSE DISCUSSED IN ZAHIR AL-DIN MUHAMMAD BABUR'S *RISĀLAT AL-'ARŪḌ*

Saparova Muhsinaxon Ravshan qizi

Tayanch doktorant

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

E-mail: msaparova549@gmail.com

ORCID: 0009-0005-5277-8054

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./QAGD3807](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./QAGD3807)

Annotatsiya. *Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Aruz risolasi” asarida keltirilgan baytning tarkibiy qismlari va aruz tizimida an'anaviy tarzda ma'lum bo'lgan musamman, musaddas, murabba' turlaridan boshqa bir qancha yana shakllari yoritilgan. Ularning tavsifi va o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *bayt va uning tarkibiy qismlari, mashtur, sahih, mug'ayyariy, solim, majzu'.*

Annotation. *The article examines the structural components of the verse presented in Zahir al-Din Muhammad Babur's *Risālat al-'Arūḍ* as well as several additional forms beyond the traditionally recognized types in the 'arūḍ system – namely musamman, musaddas, and murabba'. Their definitions and distinctive characteristics are analyzed in detail.*

Keywords: *The verse and its structural components, mashtur, sahih, mughayyariy, salim, and majzū'.*

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining nafaqat she'riy, balki ilmiy merosi bilan ham jahon tamaddunida salmoqli o'rin tutadi. Ayniqsa, uning mumtoz adabiyotdagi aruz tizimiga bag'ishlangan “Aruz risolasi” o'rta asrlar adabiyotshunosligida muhim ahamiyatga ega. Olim bu asarida aruzning tayanch unsurlari: juzvlar, asliy ruknlar, zihoflar va ular natijasida yuzaga keladigan furu'lar, bahrlar va ularning vaznlariga batafsil to'xtalish bilan bir qatorda bayt va uning tarkibiy qismlari hamda turlari haqida ham ma'lumot berib o'tadi. Shu asosda ushbu maqolada “Aruz risolasi”da yoritiladigan bayt masalasini tadqiq etamiz.

Zahiriddin Muhammad Bobur aruz tizimidagi bayt haqida ma'lumot berar ekan, shunday deydi: *“Va bayttin g'azal hosil bo'lur, yo qit'a, yo ruboiy, yo qasida, yo g'ayri ul. Aruziylar avvalg'i misraning avval ruknini sadr derlar va oxir ruknini aruz, ikkinchi misraning avval ruknini ibtido, oxir ruknini zarb. Arkonikim, sadr bila aruzning va ibtido bila zarbning arosida bo'lg'ay, hashv derlar, nechukkim debturlar: sadrast va aruzu ibtido on gah zarb va on chiz, ki*

dar miyona oftad hashv ast. Chun baytning misralarining avval va oxir ruknlarini sadr va aruz va ibtido va zarb derlar, bularning orasidag'i ruknni hashv. Bas abyotkim mashtur bo'lg'ay aning hashvi bo'lmamish bo'lg'ay. Yana necha laqabturkim bilmak kerak har aruz va zarbkim nuqson tag'ayyuridin xoli bo'lg'ay, sahih derlar. Har aruz va zarbkim tasbig' va izola va tarfildin hech nima anga ziyoda qilmamish bo'lg'aylar, mug'ayyariy derlar. Baytning arkonida agar zihofi voqe' bo'lmasa solim derlar. Ul baytkim, har misra'idin bir rukn andoqkim asl doiradadur kam qilmish bo'lg'aylar, nechukkim, bahriki asl doirada musammandur, musaddas bo'lg'ay, majzu derlar. Ul baytkim arkoni asliysidin nisf kam qilmish bo'lg'aylar, mashtur derlar” [Bobur, 1971: 11- 23].

O'zbek mumtoz adabiyotiga doir bilimlardan bizga ayonki, bayt kichik she'riy birlik bo'lib, undan g'azal, ruboiy, qit'a va tuyuq kabi baytga asoslanuvchi janrlar yuzaga keladi. Yuqorida yoritilganidek, u o'z navbatida *sadr, aruz, ibtido, zarb* va *hashv* kabi tarkibiy qismlarga ham ega. Ma'lum bo'ladiki, birinchi misraning birinchi rukni – *sadr*, oxirgi rukni – *aruz*; ikkinchi misraning birinchi rukni – *ibtido* va uning oxirgi rukni – *zarb*; har ikkala misra birinchi va oxirgi ruknlarining orasidagi qism esa *hashv* deb ataladi. Ushbu unsurlarni musamman bayt qolipida ko'radigan bo'lsak, quyidagi manzara hosil bo'ladi:

<i>Sadr</i>	<i>hashv</i>	<i>hashv</i>	<i>aruz,</i>
<i>Ibtido</i>	<i>hashv</i>	<i>hashv</i>	<i>zarb.</i>

Risolada baytning tarkibiy qismlari tavsifidan so'ng uning turlariga to'xtalinadi. Unga ko'ra, baytlar *mashtur, sahih, mug'ayyariy, solim* va *majzu* kabi turlarga bo'linadi. Ularni quyida manbada keltirilgan ma'lumotlar asosida ko'rib chiqamiz.

- *Mashtur bayt.* Risolada baytning hashvi bo'lmagan va uning asl ruknlaridan yarimiga kam qilingan birlikka aytilishi keltiriladi.
- *Sahih bayt.* Baytning *aruz* va *zarb* qismlari hech qanday zihofga uchramagan, sog'lom shaklda bo'lgan birlik. Matndan kelib chiqadiki, sahih baytning *sadr, ibtido* va *hashvlari* o'zgarishga uchrashi mumkin, ammo *aruz* va *zarblari* solim holatda bo'lishi shart.
- *Mug'ayyariy bayt.* Baytning *aruz* va *zarb* qismlari *tasbig'*, *izola* va *tarfil* zihoflariga uchramagan birlik. Aytish joizki, bu o'rinda *tasbig'* – asliy rukn so'ngidagi yengil sababning oxiriga bir sokin harf orttirish; *izola* – asliy rukn so'ngidagi yig'ilgan vatadga bir sukunlangan harf ziyoda qilish; *tarfil* – asliy rukn oxiriga bir yengil sababni orttirishdir. E'tibor beradigan bo'lsak, *tasbig'*, *izola* va *tarfil* zihoflari asliy rukn tarkibiga harf yoki juzvni ziyoda qilishni anglatmoqda. Agar bayt *aruzi* va *zarbi* ana shu orttirishlardan xoli bo'lgan bo'lsa, bunday bayt *mug'ayyariy* deb atalar ekan.

- Solim bayt. Baytning hech bir ruknlari: sadr, hashv, aruz, ibtido va zarblari zihofga uchramagan aslicha bo‘lgan birlik. Buning sahih baytdan farqi shundaki, unda faqat aruz va zarblari hech qanday o‘zgarishga uchramagan, aslicha holda bo‘lishi kerak edi.
- Majzu’ bayt. Bahr tegishli bo‘lgan doirada ko‘rsatilganidan bir rukn kam bo‘lgan, aytaylik, musamman turdagi bahr bo‘lsa, musaddas; musaddasdagi bahr bo‘lsa, murabba’ shaklidagi bayt.

Yuqorida yoritilgan ushbu bayt turlarini quyida musamman baytni anglatuvchi jadval asosida ko‘rish mumkin:

<i>T/r.</i>	<i>Bayt turlari</i>	<i>Sadr / Ibtido</i>	<i>Hashv</i>	<i>Hashv</i>	<i>Aruz / Zarb</i>
1.	Mashtur	sadr			aruz
2.	Sahih	sadr	hashv	hashv	sog‘lom
		ibtido	hashv	hashv	sog‘lom
3.	Mug‘ayyariy	sadr	hashv	hashv	+ alif / alif / - tun ¹
		ibtido	hashv	hashv	+ alif / alif / - tun
4.	Solim	sog‘lom	sog‘lom	sog‘lom	sog‘lom
		sog‘lom	sog‘lom	sog‘lom	sog‘lom
5.	Majzu’	sadr	hashv		aruz
		ibtido	hashv		zarb

Demak, baytlarning biz bilgan musamman, musaddas va murabba’ turlaridan tashqari yana bir qancha shakllari mavjud bo‘lib, bular uning muayyan aniq bir holatini ifodalay ekan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, “Aruz risolasi” asarida baytning tarkibiy qismlariga to‘xtalish bilan bir qatorda uning biz bilgan musamman, musaddas va murabba’ turlaridan tashqari yana mashtur, sahih, mug‘ayyariy, solim va majzu’ shakllari haqida ham ma’lumot berilgan bo‘lib, ularning o‘ziga xos va muayyan o‘rinlardagina qo‘llanilishi batafsil bayon etilgan. Aruz tizimiga doir har bir unsurga tavsif va tahlillar bilan bu qadar to‘xtalish “Aruz risolasi”ning o‘zbek mumtoz adabiyotidagi roli nechog‘lik muhim ekanini yana bir bor isbotlaydi.

Adabiyotlar:

¹ Bu o‘rinda tasbig‘ va izola zihoflaridagi yengil sabab va yig‘ilgan vatadga ziyoda qilinadigan bir sokin harfni bildirish uchun “alif”, orttiriladigan yengil sababni anglatish uchun esa “-tun” birliklari qo‘llanildi.



1. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Toshkent: Ta’lim-media, 2019. – nashriyoti 184 bet.
2. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. – Тошкент: Фан, 2000. Т. 16. – 37-96-бетлар.
3. Ан-наим ул-кабир (арабча-ўзбекча луғат) [Матн]: / тузувчилар: О. Носиров, М. Юсупов, Ю. Раҳматуллаев, А. Нишонов, М. Мухиддинов. – Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2021. – 806 бет.
4. Бобур Заҳириддин. Мухтасар / Нашрга тайёрловчи: С. Ҳасанов – Тошкент: Фан, 1971. – 412 бет.
5. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. // Масъул муҳаррир Ҳасанов Б. – Тошкент: Хазина, 1996. – 212 бет.